



ICHAK TUTILISHLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA AMALIYOTDA AHAMIYATI

Rajabov Doston Rustam o'g'li

Klinik fanlar kafedrası 4 bosqich talabasi

Zarmed universiteti Buxoro kompasi

Muazzamov Bobur Baxodirovich

Ilmiy rahbar, Zarmed Universiteti,

Klinik fanlar kafedrası mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichak tutilishlarining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, tashxislash usullari va zamonaviy jarrohlik davolash yondashuvlari haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, obturatsion, strangulyatsion va invaginatsion tutilishlar farqlari, bolalardagi xususiyatlari hamda muhim operatsion usullar (Mikulich, Hartmann) batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ichak tutilishi, obturatsion, strangulyatsion, invaginatsiya, operatsiya, tashxis, bolalar jarrohligi

Абстракт: В данной статье представлены аналитические данные о этиологии, патогенезе, клинических признаках, методах диагностики и современных хирургических подходах к лечению кишечной непроходимости. Особое внимание уделено различиям между обтурационной, странгуляционной и инвагинационной формами непроходимости, особенностям у детей, а также подробно описаны важные оперативные методы (Микулич, Хартманн).



Ключевые слова: Кишечная непроходимость, обтурационная, странгуляционная, инвагинация, операция, диагностика.

Abstract: This article presents an analytical overview of the etiology, pathogenesis, clinical signs, diagnostic methods, and modern surgical treatment approaches for intestinal obstruction. Particular attention is given to the differences between obstructive, strangulation, and intussusception types of obstruction, their characteristics in children, as well as detailed descriptions of key surgical methods (Mikulicz, Hartmann).

Keywords: Intestinal obstruction, obturation, strangulation, intussusception, surgery, diagnosis.

Kirish. Ichak tutilishi (ileus) – ichaklar orqali ichak massalarining o'tishi buzilishi bilan kechadigan, hayot uchun xavfli bo'lgan shoshilinch holatlardan biridir. Bu holat har qanday yoshda, ayniqsa bolalarda va keksa yoshdagilarda ko'p uchraydi. Uning sabablari, klinik ko'rinishlari va davolash yondashuvlari xilma-xil bo'lib, aniq tashxis qo'yish va vaqtida operatsiya o'tkazish bemor hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Obturatsion ichak tutilishining tarifi

Ichak ichki yoki tashqi to'siq bilan berkilib qolsa, bu holat obturatsion ichak tutilishi deyiladi. Obturatsiya vaqtida ichak devorining qon aylanishi saqlanib qoladi.

Etiologiyasi

Ichak ichidagi – hazm bo'lmagan oziq, bezoarlar, o'smalar. Ichak tashqarisidan – bitishmalar, o'smalar, jarohatlar natijasida. Ichak devoridan – o'smalar, stricturalar, divertikulalar.

Klinik belgilari

Qorin og'rig'i, ich kelmasligi va shamollarning chiqmasligi, qayt qilish, qorin shishishi. Auskultatsiyada 'suv toshqini' kabi shovqinlar aniqlanadi.



Operativ davolash

Obturatorion ichak tutilishida operatsiya sabablarga qarab bajariladi: yopishmalarni ajratish, o'smalarni olib tashlash, rezeksiya yoki bypass anastomoz qo'yish.

Strangulyatsion ichak tutilishi

Tarifi va etiologiyasi

Ichaklar siqilishi natijasida nafaqat ichak massalari harakati, balki qon aylanishi ham buziladi. Sabablari: ichak burilishi, bog'lamlar ichiga kirib qolishi, strangulyatsion bitishmalar.

Patogenezi

Qon aylanishi to'xtashi natijasida ichak devorida nekroz, gangrena rivojlanadi. Bu og'ir intoksikatsiyaga, peritonitga olib keladi.

Klinik belgilari

To'satdan boshlangan qattiq og'riq, bemor ahvolining tez og'irlashuvi, pulsning tezlashuvi, tana haroratining ko'tarilishi, qonli qusish, 'shlang uchidan qon' belgisi.

Davolash

Faqat operativ. Nekrozga uchragan ichak qismini olib tashlash, anastomoz tikish yoki stomani tashqariga chiqarish.

Mashhur operatsiyalar

Mikulich operatsiyasi – ikki bo'g'lov va segment rezeksiya. Hartmann operatsiyasi – distal rektumni qoldirib, proksimal ichakni kolostoma sifatida chiqarish.

Invaginatsiya

Bir ichak qismi ikkinchi ichakka kirib qolishi. Ko'proq bolalarda uchraydi. Etiologiyasi: limfoid giperplaziya, poliplar. Klinikasi: davriy og'riq, qusish, 'malinali jele'



ko‘rinishidagi najas. Diagnostika: ultratovush, rentgen. Davolash: bariumlilik klistir, zarur bo‘lsa, operatsiya.

Xulosa:

Ichak tutilishlari og‘ir va hayot uchun xavfli holat bo‘lib, ularni erta tashxislash va zamonaviy yondashuvlar orqali davolash bemor hayotini saqlab qolishda muhimdir. Agar bu maqolada keltirilgan diagnostika va operatsion metodlar amaliyotda to‘liq tadbiiq qilinsa, jarrohlik amaliyotidagi asoratlar kamayadi, bemorlar reabilitatsiyasi tezlashadi, sog‘lomlashtirish jarayonlari iqtisodiiy va tibbiy jihatdan samaraliroq bo‘ladi. Shuningdek, bolalar jarrohligida invaginatsiya holatlarini erta aniqlash uchun profilaktik ultratovush tekshiruvlari yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu holatlarning statistik monitoringi va elektron ma‘lumotlar bazasi orqali kuzatuvi amaliyotni optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Davolashda standartizatsiyalashgan yondashuvlar, multidissiplinar jamoa ishtirokida qaror qabul qilish, va individual yondashuvlar integratsiyasi — bu yo‘nalishdagi muvaffaqiyatli natijalarning asosiiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiiyotlar:

1. G.A. Baymatov - 'Jarrohlik kasalliklari', Toshkent, 2020
2. K.Sabirov va b. 'Bolalar jarrohligi', Toshkent, 2021
3. Davidson's Principles and Practice of Medicine, 24th Edition
4. Sabiston Textbook of Surgery, 21st Edition